



O'ZBEK TILSHUNOSLIGI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR. GASTROTOPONIMLAR

Ro'ziyev Qahramon Kuzimuratovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
tayanch doktoranti

Tel:+998-88-810-57-07

roziyevqahramon585@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-8989-2903>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17374469>

Annotatsiya: Dunyo bo'ylab ko'pgina joy nomlari (toponimlar) turli asoslar bilan paydo bo'lgan. Ushbu maqolada dunyodagi turli joy nomlari (toponimlar) ning nomlanishida taom nomlarining o'rnini masalasi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, O'zbekiston hududida ham shunday nomlarning mavjudligi, ularni nomlashning lingvistik asoslari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: taom nomlari, toponimlar, lingvistik asos, gastrotoponim

Dunyo bo'ylab ko'pgina joy nomlari (toponimlar) turli asoslar bilan paydo bo'lgan. Bu asoslarni o'rganish toponimikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, bu nomlar shu nomni qo'ygan xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlar, an'analari, tarixiy rivojlanishi va yashash tarzi bilan aloqador bo'ladi. Shu jihatdan, gastrotoponimlar ham muhim ahamiyatga ega. Bir hudud (davlat) ning eng mashhur taomini aytish orqali shu hudud (davlat) nomini yodga tushirish mumkin. Masalan, osh deyilganda O'zbekiston, qurtoba deyilganda Tojikiston, beshbarmaq deyilganda Qozog'iston, sushi deyilganda Yaponiya, pita yoki pasta deyilganda Italiya, baklava deganda Turkiya hammaning ko'z oldiga keladi. Taom nomidan kelib chiqqan joy nomlari ko'pincha o'sha hududning shu taomga bo'lgan munosabati, tayyorlanishi, taom tarixi bilan bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan, gastrotoponimlar gastroturizmni rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Dunyoning turli nuqtalarida taom nomlari bilan bog'liq nomlarni uchratish mumkin.

Gamburger-bu atama dastlab [Germaniyaning](#) ikkinchi yirik shahri bo'lgan [Gamburg nomi bilan bog'liq](#)¹. Biroq, bizningcha taom va shahar nomi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa yo'q. Joyning birinchi nomi [Treva](#) bo'lgan. U *yerdagi qal'a Hammaburg nomini olgan (burg - "qal'a" degan ma'noni anglatadi)*. Qadimgi nemis tilida xamma "burchak" degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, hamme "yaylov" degan ma'noda ham ishlatilgan². Gamburgerga Nyu-York shtatidagi Gamburg shahrining nomi berilgan degan qarash ham mavjud. 1885-yilda aka-uka Charlz va Frenk Menchis Gamburgda (Amerika) bo'lib o'tgan yarmarkada ikki non orasiga joylashtirilgan qovurilgan mol go'shti yeyishni taklif qilishdi. Hamburg- "ham"-mol go'shti ma'nosini beradi³. Taom nomi shu shaharda birinchi marta tayyorlanganligi uchun shahar nomidan olingan deyish ham mumkin. **Sandvich** Buyuk Britaniyadagi shahar nomi. Bu joy nomi "qumli tuproqdagi bozor shaharchasi" degan ma'noni anglatadi⁴. Sandvich o'n sakkizinchi asrda yashagan ingliz [aristokrati Jon Montagu, sendvich shahrining 4-grafi](#) sharafiga nomlangan. Graf qimor va boshqa karta o'yinlari bo'yicha uzoq mashg'ulotlar paytida o'z xizmatchisiga ikki bo'lak qovurilgan non orasida qovurilgan mol go'shti olib kelishni buyuradi.

¹ <https://znanierrussia.ru/articles/%D0%93%D0%B0%D0%BC%D0%B1%D1%83%D1%80%D0%B3%D0%B5%D1%80>

² https://en.wikipedia.org/wiki/History_of_Hamburg

³ <https://www.kun.uz/news/2018/08/27/burgerning-akikij-otasi-kim>

⁴ [Eylert Ekwall](#), *Oksford inglizcha joy nomlarining qisqacha lug'ati*, 404-bet.

U ovqatning bu shaklini yaxshi ko'radi, chunki u ovqatlanayotganda, vilkalar kerak bo'lmasdan va kartalari yog'lanmasdan qimor o'ynashni davom ettirishga imkon berdi. Keyin Londonda bu taom mashhur bo'lib ketdi va shahri nomi taom nomi bilan bog'landi⁵. Shuningdek, taom, non, ichimlik va shirinliklar bilan bog'liq boshqa nomlarni ham uchratish mumkin: **Apple Valley** (AQSh), **Olive Branch** (Missisipi, AQSh) **Chicken** (Alyaska), **Pie Town** (Nyu-Meksiko), **Bread Street** (London), **Milk Street** (London), **Pudding Lane** (London) **Champagne** (Fransiya, viloyat), **Kobe** (Yaponiya, shahar. Dunyoga mashhur Kobe go'shti vatani).

Biz asosiy e'tibor qaratmoqchi bo'lgan jihat bu O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan gastrotoponimlardir. Dunyoning turli nuqtalarida bo'lgani kabi yurtimizda ham bunday nomlarni uchratish mumkin. Biz bunday gastrotoponimik nomlarni quydagicha guruhlash mumkin deb hisoblaymiz.

1. **taom nomlari bilan bog'liq joy nomlar** (*Bo'tqachi, Bovurchi, Go'jaxo'r, Jizza, Lag'mon, Moshxo'ron, Norin, Oshtepa, Somsali, Somsatepa*);
2. **ichimlik nomlari bilan bog'liq joy nomlari** (*Ayronko'l, Bo'zachi, Sutkent, Sutxo'r, Qorasuv, Qizilsuv, Suvbuzgan, Suvliq, Suvuti*);
3. **non maxsulotlari bilan bog'liq joy nomlari** (*Nonvoyon, Nonxo'r, Qayirma, Kulcha*);
4. **shirinlik nomlari bilan bog'liq joy nomlari** (*Holvagaron*)
5. **oshxona asbob-anjomlari bilan bog'liq joy nomlari** (*Qozon, Tandir*)

Taom nomlari bilan bog'liq joy nomlar. Bo'tqachi – Farg'ona viloyati Yozyovon tumanidagi qishloq nomi. Bo'tqachi qirg'izlarning ichki guruhi tarkibiga kiruvchi nayman qabilasining bir tarmog'i bo'lgan⁶. Urug' nomi asosida qishloq nomi vujudga kelgan. Ba'zi adabiyotlarda bu qishloq aholisi shirin-shirin bo'tqa pishirib, mehmonlarni kutganidan shunday yuritiladi⁷. **Bo'tqa** — suyuq, quyuq yoki maydalangan **taom**, suv yoki sutda qaynatilgan don, pishirilgan **don** yoki undan tayyorlanadigan taom. Rus oshxonasining asosiy taomlaridan biri bo'lib, ahamiyatiga ko'ra karam sho'rvasidan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi⁸. *Moshguruch bo'tqa, saryog'li bo'tqa, go'shtli bo'tqa* kabi turlarini xalqimiz sevib iste'mol qiladi. Leksemaning semasida “aralash-quralash qilish”, “bo'shanglik” ma'nolari bo'lib, xalqimiz tomonidan salbiy ma'noda ishlatiladi. **Bo'tqasini chiqarmoq** iborasi “ezib, majaqlab yubormoq, adabini bermoq” ma'nosida izohlanadi⁹.

Bovurchi – atrofi tabiiy narsalar bilan o'ralgan chegara, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani. *Bovurchi* (“*dasturxonchi*”) – Chingizxon davrida “*ovqat va ichimlik mudiri*”, keyinchalik *xonning asosiy oshpazi (bakovul)* bo'lgan. Demak, *Bovurchi* – “*oshpaz*” ma'nosini ifodalaydi¹⁰. Bovurning o'zi shevadagi so'z bo'lib, *bag'ir, jigar; dil* ma'nolarida ishlatiladi. **O'pka-bovur pishirmoq** deganda hayvonlarning shu a'zosidan ya'ni o'pkasi va jigaridan taom tayyorlash nazarda tutiladi. O'pka-bovur(jigar) Surxon vohasi aholisining eng sevimli

⁵ https://en.wikipedia.org/wiki/Sandwich#cite_note-What's_Cooking_America-8

⁶ Gubayeva S.S. Etnicheskaya istoriya naseleniya Fergani konsa XIX – nachala XX vv. (Po dannim toponimii). –T., 1983.

⁷ Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. –Toshkent, 1989.

⁸ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bo%27tqa>

⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. 1-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 705-bet.

¹⁰ O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn]: lug'at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 71-b.

taomlaridan biri hisoblanadi. Voha qo'ng'irotlari orasida *O'mirtqani oma, peshnab go'shtdan qoma*, degan iboraga ko'ra, qo'y so'yilgandan keyin, albatta, asosiy taom pishguncha, birinchi navbatda peshnab (biqin) go'shti o'pka-jigar-buyrak bilan qovurilib, dasturxonga keltiriladi¹¹. Chorvachilik bilan shug'ullanadigan boshqa xalqlarda ham, jumladan, mo'g'ullarda qo'ying ichki organlarini mustaqil taom sifatida hamda alohida ramziy ahamiyat kasb etganligini Yuragini yesa – botir, bovrini yesa – kuchli bo'ladi, degan iborasidan ko'rish mumkin¹². “quyruq bovr” deb nomlanuvchi taom qozoq va qirg'iz pazandaligida hozirgacha saqlanib keladi¹³.

Go'jaxo'r – Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq nomi. **Go'ja** – *jo'xori yoki bug'doydan tozalab tayyorlangan osh; go'jaxo'r – shunday oshni yoqtiruvchi yoki tayyorlovchi* (qishloq aholisining laqabi) *kasb egasidir*¹⁴. Bu taom O'zbekistonda bo'lganidek, Qozog'istonda ham eng sevimli taomlardan biridir. Yurtimizda go'janing tayyorlanishi va ishlatiladigan mahsulotiga ko'ra *sutli go'ja osh, qatiqli go'ja oshi, achitma go'ja* kabi turlari mashhur. Go'ja oshini marosim taomi sifatida O'rta Osiyoning barcha o'troq aholisi yangi yilda, ya'ni Navro'zda jo'xoriga yetti xil o't qo'shib tayyorlashgan¹⁵. “Attuhfazuz zakiyatu fillug'atit turkiya” da *kocha* shaklida uchraydi¹⁶. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da **o'g'ir kelida tuyib oqlangan jo'xori (oq jo'xori)dan tayyorlangan suyuq ovqat tarzida izohlanadi. Qulmurod qozondagi go'ja oshiga ikki kosa qatiq qo'shdi. S. Ayniy, Qullar**¹⁷. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani qishloqlarida bu taom *ko'cha osh*, Boysun tumani tojik millatiga mansub aholi *ko'chaxo'r*, Denov tumani qishloqlarida *ko'cha yoki go'ja shulla* deb nomlangan¹⁸. Etimologiyasi o'rganilganda shu ma'lum bo'ldiki, umumiy “aralashma”, “qorishma” degan ma'nolarni anglatadi.

Jizza – Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Kasbi tumanlaridagi qishloq nomi. Taxmin qilinadi: toponim sug'dcha *diz* – “qal'a” va unga *-a* qo'shimchasi qo'shish orqali hosil qilingan¹⁹. Shu bilan birga, o'zbek tilida aynan shunday taom sifatida iste'mol qilinadigan mahsulot nomi ham mavjud. **Jizza o'z yog'ida qovurilgan to'g'ramcha dumba, charvi shaklida “O'zbek tilining izohli lug'ati”da beriladi. Karomatxon odatdagi ochiqligi bilan o'z uyidek, qani olinglar, deb kul-di-da, bir-ikki dona jizzani og'ziga soldi. R. Fayziy, Cho'lga bahor keldi. Jizza non jizzali non. Onasi ham shod benihoya, Nonushtaga yopdi jizza non. Y. Mirzo**²⁰. Bundan ma'lum bo'ladiki, joy nomi va taom nomi o'rtasida bog'liqlik yo'q. Bular o'zaro shakldosh leksikalardir. Lug'tlarda ham shunday shaklda berish maqsadga muvofiq.

¹¹ Fayzullayeva M.X. O'zbek milliy taomlari va tanovul madaniyati: Tarix fan. dok. diss. – Termiz, 2022. 107-b.

¹² Центральная Азия // Этнография питания народов стран зарубежной Азии... – С. 123.

¹³ Mahmudov K. O'zbek tansiq taomlari. — T., «Mehnat», 1989. 107-b

¹⁴ O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn]: lug'at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 139-b.

¹⁵ Lobacheva N.P. K istorii kalendarnix obryadov u zemledelsev Sredney Azii // Drevniye obryadi verovaniya i kulti narodov Sredney Azii. – M., 1986. – S. 16.

¹⁶ Attuhfazuz zakiyatu fillug'atit turkiya. – Toshkent: Fan, 1968. 222-b.

¹⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. 2-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 273-bet.

¹⁸ Fayzullayeva M.X. O'zbek milliy taomlari va tanovul madaniyati: Tarix fan. dok. diss. – Termiz, 2022. 186-b.

¹⁹ O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn]: lug'at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 170-b.

²⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. 2-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 665-bet.

Lag'mon – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumani, Lag'mon qishloq – Surxondaryo viloyati Denov tumani. Lahim, lag'm – yer ostidan yerning ustiga yer osti suvini chiqaradigan anjom; -on – forscha ko'plik qo'shimchasi²¹. Ammo o'zbek tilida **Lag'mon** [uyg'urcha “la myan” — cho'zilgan xamir] xamirni cho'zib yoki uzun ingichka kesib tayyorlanadigan, yuziga qayla solib yeyiladigan ovqat²² ma'nosida ishlatiladi. Bu tansiq taom asli Xitoy pazandaligiga mansub bo'lib, «Lya» — chuvalchang, «myan» — xamir ma'nosini anglatadi. Uzoq o'tmishda bizga uyg'ur oshpazligi orqali kirib kelgan va hanuzgacha saqlanib qolgan²³. Bu taomning tayyorlanishi nuqti nazaridan turlicha turlari mavjud: *cho'zma lag'mon, kesma lag'mon, ipak lag'mon, qovurma lag'mon, suyuq lag'mon*.

Moshxo'ron – qishloq. Buxoro viloyati Buxoro tumani. Mosh, moshxo'r – moshdan bo'lgan taomni sevuvchi, -on – ko'plik ko'rsatkichi (qishloq aholisining taxallusi)²⁴. Mosh dukkakli mahsuloti xalqimiz tomonidan “issiqlik” sifatida qabul qilinadi va ko'plab taomlar tayyorlanadi. Jumlada, Mosh-guruch (mosh-birinchi), moshkichiri, moshova, moshugra, moshxo'rda. Bunday mahsulotdan tayyorlangan taomlarni ko'p iste'mol qiluvchilar uchun alohida toponimik nomning bo'lishi tabiiy.

Norin – Namangan viloyati tarkibidagi shahar va tuman nomi. Norin – Qirg'iziston va O'zbekistondagi daryo nomi. Daryo Markaziy Tyanshandan boshlanadi. Uzunligi 807 kilometr. Farg'ona vodiysi hududida Norin Qoradaryo bilan qo'shilib, Sirdaryoni hosil qiladi. Tuman hududining shimoli-g'arbiy qismidan Norin daryosi oqib o'tadi, daryo nomi tuman nomiga asos bo'lib xizmat qilgan. Norin nomining tarqalish areali ancha keng va u turkiy hamda mo'g'ul xalqlari yashaydigan hududlarda uchraydi. Norin nomi dastlab gidronim sifatida paydo bo'lgan, keyinchalik shahar va tuman ham shu nom bilan atalgan. Norin so'zi mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, H.Hasanovning yozishicha, norin so'zi mo'g'ul tilida “*tor, ingichka*” ma'nolarini anglatadi. Hozirgi mo'g'ul tilida nariyn – “*ingichka, nozik, tor, tang*” kabi ma'nolarga ega. Norin so'zining ma'nosi unutilib, nutqdan chiqib ketgach, atoqli otga aylangan. Nom ma'nosidan ma'lumki, daryo o'zanining qaysi bir qismi tor, siqiq bo'lib, suvi tez oqqan bo'lsa, dastlab o'sha qismi shu nom bilan atalgan. Keyinchalik nomning areali

kengayib, butun daryo shu nom bilan yuritilgan. Boshqacha aytganda, *Norinni tang, siqiq daryo*, deb izohlasa bo'ladi. Qirg'iz olimlari B.Yunusaliyev va S.Qudaybergenovlar ham norin so'zining “*tor, kamar*” ma'nolari borligini qayd qilishgan. S.Qorayev norin so'zini etnonim hisoblab, o'zbeklarning laqay, yuz qabilalari, shunidek Farg'ona qipchoqlari tarkibida norin urug'i borligini ta'kidlagan. E.M.Murzayev esa norin – “*serquyosh, oftobro'y*” degan ma'noni anglatadi deydi²⁵. O'zbek milliy taomlari orasida xo'randa sevib iste'mol qiladigan norin taomi ham bor. **Norin**-pishirilgan xamir va go'shtni (odatda qazini) mayda to'g'rab, aralashtirib

²¹ O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn]: lug'at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 231-b.

²² O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. 3-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 25-bet.

²³ Mahmudov K.O'zbek tansiq taomlari. — T., «Mehnat», 1989. 244-b

²⁴ O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn]: lug'at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 259-b.

²⁵ O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn]: lug'at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 276-b.

tayyorlanadigan ovqat. Quruq norin (sho'rva solinmagan norin). Ho'l norin (sho'rvali norin)²⁶. Norin eng qadimiy taomlardan hisoblanib, o'tmishda chorvador qabilalar o'rtasida keng tarqalgan. Joy nomi va taom nomi o'rtasida aloqadorlik mavjud bo'lib, ikki nom uchun ham leksemaning "ingichka, nozik, tor" ma'nosi asos qilib olingan. Zero, norin taomida xamir va go'sht ingichka qilib to'g'raladi. "Norin" ning ma'nosi — mayda to'g'ralgan demak²⁷. Yurtimizda shuningdek **Oshtepa, Somsali, Somsatepa** kabi taom nomlari bilan bog'liq toponimlar ham mavjud. Bu kabi taom nomlari bilan bog'liq toponimlarning mavjudligi xalqimiz hayotida ushbu taomlarning alohida o'ringa ega ekanligini ko'rish mumkin.

Ichimlik nomlari bilan bog'liq joy nomlari. Ayronko'l – Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Tumandagi qadimiy nomlardan biri bo'lib, rivoyatlarga ko'ra qadimda bir odam bu ko'lda qushini yo'qotgan va shundan hayron bo'lib yurgan. Shundan keyin bu ko'l *Hayronko'l* nomi bilan atala boshlagan hamda keyinchalik mazkur hudud *Ayronko'l* nomini olgan. Har qanday rivoyatning ham tagida qaysidir ma'noda kichkina haqiqat yotishini inobatga olsak, bu haqiqatga yaqinroqdir. Chunki tilshunoslikdagi fonetik qonuniyatlarga asosan tovush tushish hodisasi mavjud bo'lib, Xorazm shevasida so'z boshida tovush tushishi bor, masalan, Hayitjon, Hayitboy ismlaridagi so'z boshidagi *h* harfi tushirilib, Aytjon va Aytvoy tarzida talaffuz qilinadi, shunday ekan, *Ayronko'l* ham *Hayronko'l* bo'lishi mumkin. Andijon viloyati Oltinko'l tumaniga qarashli qishloq nomi ham shunday nomlanib, u quyidagicha izohlanadi: "O'zbek xalqi tarkibidagi urug'lardan birining nomidan olingan. Tilshunoslar fikricha, *-chi* affiksi ma'nosiga ko'ra, toponimikada *-lik* affiksiga yaqin: *ayronchi* – *ayronli(k)*, *farg'onachi* – *farg'onalik* va h.k. Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida ham shu nomli qishloqlar bor. Shuningdek, Andijon viloyati Andijon tumani; Qashqadaryo viloyati Koson va Kitob tumanlarida ham shunday nomli toponim mavjud²⁸. Nayman qabilasi urug'laridan biri ayronchi deb nomlangan²⁹. Shunday fikrlar ham bor, *ayronchi* so'zi *ironchi* – "eronlik", "erondan kelib chiqqan odam". Mazkur toponim Respublikaning juda ko'p hududlarida uchrab, uning ma'nosi yuzasidan turli xildagi rivoyatlar va afsonalar qayd etilsa, shu bilan bir qatorda, soha olimlarining har birisi o'z nuqtayi nazaridan yondashgan. Masalan, Qashqadaryo viloyati Koson, Kitob tumanlaridagi ushbu nomning ma'nosi yuzasidan tilshunos T.Nafasov quyidagi fikrlarni qayd etadi: "O'zbek xalqi tarkibidagi urug'lardan biri – *ayronchi*. Urug'iga nisbat berilib, qishloq nomlangan. Etnonimning tarkibi: *ayron+chi*. *Ayron* – qush turi, *-chi* qo'shimchasi etnonimiyada "mansublik, tegishlilik" ma'nosidan tashqari, "to'da, jam', to'p, jamoa" ma'nolarini ham anglatgan: *ayronchi* – ayron qushini totem deb biluvchi jamoa". Hozirgi o'zbek tilida **Ayron**-qatiqning kuvda moyi ajratib olingandan keyin qolgan suyuq qismi, shuningdek, qatiq yoki suzmaga suv qo'shib tayyorlangan ichimlik³⁰ nazarda tutiladi. Bu ot qadimgi turkiy tilda **ayir**- fe'lidan *-(a)n* qo'shimchasi bilan yasalgan. Qo'shimcha qo'shilganidan keyin ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan, o'zbek tilida so'z

²⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. 3-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 402-bet.

²⁷ Mahmudov K.O'zbek tansiq taomlari. — T., «Mehnat», 1989. 112-b

²⁸ O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn]: lug'at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 259 -b.

²⁹ Karmisheva B. X. Ocherki etnograficheskoy istorii yujnix rayonov Tadjikistana i Uzbekistana. –M., 1976. 102-bet

³⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. 1-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 202-bet.

boshlanishidagi **a** unlisi **ä** unlisiga, ikkinchi bo'g'indagi **a** unlisi **â** unlisiga almashgan: **ayir- + an = ayiran > ayran > äyrân**. Bu so'z asli "sutdan yog' ayirib olinganidan keyin qoladigan suyuqlik" ma'nosini bildirgan³¹. Shundan xulosa qilish mumkinki, joy nomi va ichimlik nomi o'rtasida semantik yoki mantiqiy bog'liqlik mavjud emas. Ikkalasi shakldosh leksemalardir.

Bo'zachi – Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomlaridan biri. Bo'za – tariqdan, mayda guruchdan tayyorlangan mast qiluvchi ichimlik bo'lib, bo'zachi yoki bo'zagar esa, bo'za tayyorlash bilan shug'ullanadigan shaxsdir. Bo'za ichimligi bilan bog'liq yana bir nom **Bo'zaxo'r** – Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq. Bo'zaxo'r – "bo'zni yoqtiruvchi" ma'nosini ifodalab, u "bo'zni yoqtiruvchilar qishlog'i" ma'nosini bildiradi³². Bo'za leksekasining o'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"³³da forscha o'zlashma shaklida berilsa, Shavkat Rahmatullayev o'zining "O'zbek tilining etimologik lug'ati"³⁴da arabcha birliklar orasida izohlaydi. Ammo bu leksema Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida ham uchraydi. Lug'atda ichkilikning qator turlari va ularning anglatgan leksemalar xususida zarur ma'lumotlar keltirilgan. Chunonchi, ajdodlar bug'doyni yanchib, undan bo'za tayyorlashgan. Ichkilikning bu turi ag'artg'u istilohi bilan ifodalangan (III,446). Bu so'z boshqa birorta eski turkiy til manbalarida qayd etilmagan, u DTSga kiritilmagan³⁵. Bizningcha bu yerda rangga qiyoslash mavjud. Zero, bo'zning o'zi arabcha "oq-kulrang mato" ma'nosida izohlanadi. Mahmud Koshg'ariy o'z asarida bug'doydan paydo bo'lgan ichimlik "bekni" yoki "buxum"ni qoraxonlilar "buxoun", o'g'uzlarning esa "bo'za" deb ataganliklari haqida ma'lumot bergan. Tariqdan tayyorlangan bo'za *buxsum* so'zi yordamida anglashilgan (1,447). Lug'atning uchinchi jildida *bor* istilohining "bo'za, sharob"ni ifodalashini takidlagan hamda faktik misol tariqasida ushbu maqol keltirilgan: *бор болмазын сиркә болма* – sharob bo'lishdan oldin sirka bo'lma (III,133). Mazkur istiloh dastlab Turfon matnlarida qo'llangan³⁶. Bo'za leksemasi turkiy xalqlarda avvalda mavjud bo'lgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, taom nomlari asosida shakllangan joy nomlarini lingvistik jihatdan o'rganish etnografiya, tarix va madaniyatshunoslik fanlariga ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Bunday toponimlar xalqning oziq-ovqat madaniyati, tarixiy-madaniy an'analari va etnik xususiyatlari haqida qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Taom nomlari asosidagi toponimlarni tadqiq etish orqali muayyan hududda tarixan qanday taomlar mashhur bo'lganligi, qadimiy taomlar va ularning nomlari, bu nomlarga ushbu xalqning munosabat, xalqning oziq-ovqat madaniyati va an'analari kabi muhim masalalarga oydinlik kiritish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati; Библиографические ссылки; References:

1. Attuhfazuz zakiyatu fillug'atit turkiya. – Toshkent: Fan, 1968. 222-b.

³¹ Rahmatullaev Sh., O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). T., Universitet, 2000. 24-bet.

³² O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn]: lug'at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 93-b.

³³ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. 1-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 717-bet.

³⁴ Rahmatullaev Sh., O'zbek tilining etimologik lug'ati (arabcha so'zlar va ular bilan hosilalar). T., Universitet, 2000. 79-bet.

³⁵ Dadaboyev H. "Devonu lug'atit turk"ning til xususiyatlari. Monografiya. T., 2017-yil. 76-bet

³⁶ Dadaboyev H. "Devonu lug'atit turk"ning til xususiyatlari. Monografiya. T., 2017-yil. 76-bet



2. Dadaboyev H. “Devonu lug‘atit turk” ning til xususiyatlari. Monografiya. T., 2017-yil. 76-bet
3. Eylert Ekwall , Oksford inglizcha joy nomlarining qisqacha lug‘ati , 404-bet.
4. Fayzullayeva M.X. O‘zbek milliy taomlari va tanovul madaniyati: Tarix fan. dok. diss. – Termiz, 2022. 186-b.
5. Губаева С.С. Этническая история населения Ферганы конца XIX – начала XX вв. (По данным топонимии). –Т., 1983.
6. Кармишева Б. Х. Очерки этнографической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –М., 1976. 102-бет
7. Лобачева Н.П. К истории календарных обрядов у земледельцев Средней Азии // Древние обряды верования и культы народов Средней Азии. – М., 1986. – С. 16.
8. Mahmudov K.O‘zbek taniq taomlari. — Т., «Mehnat», 1989. 112-b
9. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. –Toshkent, 1989.
10. Rahmatullaev Sh., O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arabcha so‘zlar va ular bilan hosilalar). T., Universitet, 2000. 79-bet.
11. Центральная Азия // Этнография питания народов стран зарубежной Азии... – С. 123.
12. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 93-b.
13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. 1-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 717-bet.
14. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bo%27tqa>
15. https://en.wikipedia.org/wiki/Sandwich#cite_note-What's_Cooking_America-8
16. https://en.wikipedia.org/wiki/History_of_Hamburg
17. <https://www.kun.uz/news/2018/08/27/burgerning-akikij-otasi-kim>
18. <https://znanierussia.ru/articles/%D0%93%D0%B0%D0%BC%D0%B1%D1%83%D1%80%D0%B3%D0%B5%D1%80>